

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAYITOVA MAFTUNA RAXMATILLA QIZI**

**BANKLARNING TRANSFORMATSIYALASHUVIDA KREDITDAN  
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

UDK: 330.101.541:330.35(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation of doctoral of Philosophy (PhD)  
on economic science**

**Xayitova Maftuna Raxmatilla qizi**

Banklarning transformatsiyalashuvida kreditdan foydalanish samaradorligini  
oshirish .....3

**Хайитова Мафтуна Рахматилла қизи**

Повышение эффективности использования кредитов при трансформации  
банков .....29

**Khayitova Maftuna Rakhmatilla kizi**

The transformation of banks and the use of credit to improve efficiency .....57

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....64

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAYITOVA MAFTUNA RAXMATILLA QIZI**

**BANKLARNING TRANSFORMATSIYALASHUVIDA KREDITDAN  
FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Iqt2593 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Toymuxamedov Ibroxim Rixsiboyevich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Ismailov Alisher Agzamovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Norov Akmal Ro'zimmamatovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **"Biznesni rivojlantirish banki" ATB**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 30.10 soat 16<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-71, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida tanishish mumkin (1793 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100000, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-71, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 14 10 kuni tarqatildi.

(2025-yil 14 10 dagi 88- raqamli reestr bayonnomasi).



**S.U. Mexmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, i.f.d., professor

**U.V. Gafurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, i.f.d., prof

**S.K. Xudoyqulov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d.,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida bank tizimini transformatsiya qilish jarayonida kredit resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish muhim strategik ahamiyat kasb etadi, chunki moliyaviy vositachilikni modernizatsiya qilish orqali investitsiya muhitini yaxshilash va iqtisodiyotning real sektoriga moliyaviy resurslarni samarali yo'naltirish imkoni yaratiladi. Zamonaviy moliyaviy muhitda kredit samaradorligi banklarning xavf-xatarlarni baholash va boshqarish qobiliyati, raqamli texnologiyalarni joriy etish, kapitalning sifat tarkibi va mijozlar bilan munosabatlarda shaffoflik darajasi bilan bevosita bog'liq. Xalqaro amaliyotda, xususan, Jahon banki tomonidan ta'kidlanganidek: "Kredit samaradorligi moliya sektori barqarorligining asosiy omili hisoblanadi va ajratish mexanizmlarini takomillashtirish investitsiya mahsuldorligi hamda makroiqtisodiy barqarorlikni oshirishga bevosita ta'sir qiladi"<sup>1</sup>. Shuning uchun ham, bank tizimini transformatsiya qilish doirasida kredit siyosatini innovatsion yondashuvlar asosida qayta ko'rib chiqish, intellektual tahlil vositalari orqali kreditga layoqatli loyihalarni aniqlash, shuningdek, kredit portfelini diversifikatsiya qilish global moliyaviy barqarorlik va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim shartlaridan biri sifatida o'rganiladi.

Jahonda banklarning transformatsiyalashuvida kreditdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar moliyaviy vositachilikni optimallashtirish, kredit ajratishda intellektual tahlil modellarini (AI, machine learning) joriy etish, xavf-xatarlarni boshqarish tizimlarini takomillashtirish hamda raqamli platformalar asosida mijozlarni saralash va baholash mexanizmlarini ishlab chiqish singari ustuvor yo'nalishlarni qamrab oladi. Shuningdek, tadqiqotlarda kredit portfelining diversifikatsiyasi, kredit resurslarining sektorlararo taqsimoti samaradorligini baholash, ESG(Environmental, Social, and Corporate Governance) mezonlari asosida mas'uliyatli kreditlash amaliyotini kengaytirish hamda bank kapitali va likvidlik ko'rsatkichlari bilan kredit samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan uslubiy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, xalqaro amaliyotda markaziy banklar va moliyaviy nazorat organlari tomonidan ishlab chiqilgan makroprudensial siyosat doirasida kredit faoliyatining samaradorligini tahlil qilish va baholash mezonlarini takomillashtirish ham dolzarb ilmiy izlanishlar sirasiga kiradi. Bu yo'nalishlar orqali bank tizimining barqarorligi, investitsiya muhitining faollashuvi va iqtisodiy o'sish sur'atlarining uzoq muddatli ta'minlanishiga xizmat qiluvchi moliyaviy mexanizmlar shakllanadi.

O'zbekistonda banklarning transformatsiyalashuvida kreditdan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida barqaror moliyaviy muhit yaratish, kredit siyosati mexanizmlarini takomillashtirish va banklar kapitali bilan likvidlikni muvozanatlashtirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Moliya tizimida raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali kreditlash jarayonini avtomatlashtirish, xavf-xatarlarni ilg'or tahlil vositalari yordamida baholash hamda kredit portfelining sifatini yaxshilash ustuvor vazifalar

---

<sup>1</sup> World Bank Financial Development Report, 2022, p. 78

sifatida belgilangan. Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, banklar o'rtasida samarali hamkorlikni mustahkamlash, mikro, kichik va o'rta biznes subyektlarini kreditlashni kengaytirishga qaratilgan dasturlar tatbiq etilmoqda. "Biz, avvalo, chetdan kredit va sarmoyalar olib kelish bo'yicha samarali tizim yaratishimiz, har bir kreditni aniq ishlatishni o'rganishimiz lozim. Bu masalada yetti o'lchab, bir marta kesadigan, oqibatini puxta o'ylab ish olib boradigan davr keldi"<sup>2</sup>. "So'nggi yillarda mamlkatimizda ilg'or bank biznesini yuritish hamda ushbu sektorda raqobat muhitini kuchaytirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratildi. Endi, toifaga qarab, tumanlarning iqtisodiy rivojlanishini belgilaymiz. Tadbirkorlar uchun subsidiya, kreditlar va kompensatsiyalar toifalardan kelib chiqib ajratiladi"<sup>3</sup>. Markaziy bank tomonidan moliyaviy nazoratni kuchaytirish, kreditlash jarayonidagi shaffoflikni ta'minlash va barqarorlikni oshirish maqsadida yangi regulyatorlik choralari joriy etilishi ham ushbu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Bu sa'y-harakatlar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va bank sektori ustuvorligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2019-yil 9-oktabrdagi PQ-4487-son "O'zbekiston Respublikasi bank sektorining moliyaviy barqarorligini oshirishga oid birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-son "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-son "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning o'rganilganlik darajasi.** Bank kreditlari, mijozning kreditga layoqatliligi tahlili va baholash masalalari bir qator xorijlik iqtisodchilar, jumladan, D.Yendovskiy, S.Yermakov, X.Soto, A.Balabanov, V.Prosalova, A.Gryaznova, Ye.Dolan, V.Glushenko, O.Lavrushin, J.Matuk, G.Panova, Dj.Sinkening ilmiy

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018 y. // Xalq so'zi, 29.12.2018

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr <http://uz.hook.report/2022/12/murojaatnoma/>

izlanishlarida o‘z aksini topgan<sup>4</sup>. Shu bilan birga, banklarni tashqi omillar ta‘sirida o‘zgartirishning nazariy jihatlarini P.Bauer, B.Burnet, B.King, R.Randell, L.Faei singari xorijlik iqtisodchilar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar Y.Abdullayev, Sh.Abdullayeva, N.Jumayev, M.Xamidulin, E.Akramov, M.Pardayev, U.Azizov, M.Raximov, B.Xakimov, S.Maxmudov, A.G‘ulomxo‘jayevning ilmiy ishlarida mazkur masalaning alohida jihatlarini o‘z aksini topgan<sup>5</sup>.

Bankning tashkiliy tuzilmasi va uning korporativ madaniyatini o‘zgartirishning uslubiy asoslarini o‘rganish turli davrlarda I.Adzes, K.Berger, B.Gehrig, O.N.Grigoryeva, R.Doljenko, I.A.Yezangina, I.Irsig, A.Liberto, A.Mamontov, V.Millerning ilmiy ishlari bank kreditlari metodologiyasiga inkor yetib bo‘lmaydigan hissa qo‘shadi, ammo banklarni xususiylashtirishda kredit liniyalari samaradorligini baholash masalasi to‘liq o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining maqsadli ilmiy strategiyalari va mamlakatni rivojlantirishdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga mos keladi.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatida kreditdan samarali foydalanishni o‘rganish, shu bilan bog‘liq operatsiyalarini tahlil qilish va baholash masalalari hamda qarzdorning kreditga layoqatliligini yaxlit tarzda o‘rganish asosida ularni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

qarzdorning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni nazariy jihatdan tadqiq qilish;

qarzdorning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashning huquqiy asoslarini o‘rganish;

mijozning kreditga layoqatliligini baholashning asosiy ko‘rsatkichlarini o‘rganish;

tijorat banklarida korxonalar va jismoniy shaxslarning kredit layoqatliligini baholash tartibini tahlil qilish;

---

<sup>4</sup> Ендовицкий Д.А. Анализ и оценка кредитоспособности заемщика: учеб.-практ. пособие / Д.А. Ендовицкий, И.В. Бочарова. – М.: КНОРУС, 2005, Ермаков. С.Л. Основы организаций деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: КНОРУС, 2014 – 656с., Сото Х.У. Денги, банковский кредит и экономические циклы. / Пер. с англ. – М.: Социум, 2008. – 663 с., Балабанов А.И., Боровкова Вик. Банки и банковское дело: учебник. 2-е изд. –СПб.: Питер, 2014.-448с., Просалова В.С. Проблемы оценки кредитоспособности клиентов коммерческих банков. Монография. – Владивосток: Изд-во ВГУЭС, 2008. – 17, 57 с., Манделл Р.А. Выбор экономической политики для достижения внутреннего и внешнего равновесия. Сборник статей. /Пер. с англ. – М.: Дело, 2001. - С. 155., Глушенко В.В. Анализ процедур оценки кредитоспособности заемщика коммерческого банка. Автореф. дисс. ... к.э.н. – М., 2015. 17 с., Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. 7-е издание. /Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д.Вильямс», 2013. – С. 497.

<sup>5</sup> Abdullayeva Sh. Bank ishi. Darslik. – T.: Moliya, 2016.-579 b., Abdullaeva Sh. Bank ishi. Darslik. – T.: Moliya, 2017. -526 b., Pardaev M.Q. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlilning nazariy va metodologik muammolari: i.f.d. dissertatsiyasi. – Samarqand, 2001 y. - 228 b., Azizov U.O‘. Tijorat banklari tomonidan kichik va o‘rta biznesni moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari. diss. avtoref. ... i.f.n. – T., 2004. 100 b., Rashidov O.Yu. Tojiyev R. Markaziy bankingning monetar siyosati. – T.: TDIU nashriyoti, 2012., Tojiyev R.R., Jumayev N.X. Markaziy bankingning monetar siyosati. – T.: TDIU nashriyoti, 2007. – 260 b.

ayrim xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish asosida majburiy zaxira me'yorlarini belgilash amaliyoti muammolarini aniqlash;

xo'jalik yurituvchi subyektlarning kreditga layoqatliligi tahlili va baholashni takomillashtirish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan tijorat banklari, xususan, "Agrobank" aksiyadorlik tijorat banki hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmeti** banklarning transformatsiyalashuvi jarayonida kreditlardan samarali foydalanishni takomillashtirish orqali banklar barqarorligini ta'minlash jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tijorat banklari uchun bozor risklari bo'yicha 1 foizgacha va operatsion risklar bo'yicha 0,5 foizgacha dinamik ustama qo'llashni nazarda tutuvchi risk moslamasiga asoslangan kreditlarni baholash tizimini ishlab chiqish orqali chakana kreditlar stavkasini aniqlashda risklarni hisobga olish mexanizmi takomillashtirilgan;

jismoniy shaxslarning kredit to'lovi qobiliyatini baholashda mijozning moliyaviy ko'rsatkichlari, kredit tarixi va xulq-atvor ma'lumotlarini qamrab olgan uch bosqichli kredit-skoring modeli asosida riskni minimallashtirish taklifi asoslangan;

bank mijozlarining intizomli va to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan toifasini sun'iy intellekt yordamida doimiy ravishda segmentlash orqali ularga avtomatik tarzda ma'qullangan kredit xizmatlarini taklif etish tizimi joriy etish orqali kredit portfelining sifati hamda maqsadli xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

tijorat banklarida avtokreditlar bo'yicha boshlang'ich badalni uch baravargacha pasaytirish imkonini beruvchi moslashuvchan shart-sharoitlarga asoslangan kredit siyosati asosida chakana kreditlash hajmini kengaytirish va avtokredit bozorida raqobatbardoshlikni kuchaytirish taklifi asoslangan.

**Tadqiqot ishining amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

bank mijozlariga kredit ajratish tizimini tabaqalashtirish orqali muammoli kreditlarni kamaytirish hamda kreditning samarali ishlashini ta'minlash asoslangan;

tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha yuzaga kelgan muammoli kreditlarni chakana kredit mahsulotlari kesimida 1 foizgacha va bank xizmat ko'rsatish markazlari kesimida 3 foizgacha limit joriy etish orqali kamaytirish taklifi asoslangan;

bankning chakana mijozlar bazasidan "yaxshi" mijozlar guruhini sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib doimiy shakllantirib borish orqali bu toifadagi mijozlarga ma'qullangan kredit xizmatini joriy etish taklifi ishlab chiqilgan;

mavsumiy xarakterga bog'liq bo'lmagan korxonalariga ajratilgan kreditlar va ulardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblikni kredit operatsiyalari bo'yicha foiz marjasini yillik biznes rejada belgilash orqali ta'minlash asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi qo'llanilayotgan uslubiy yondashuv va

usullarning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, ma'lumotlar bazasi rasmiy manbalardan olinganligi, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalar vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan kreditlarni samarali boshqarish, ularni mijoz va bank uchun qulay bo'lgan usullarini qo'llashga doir nazariy va amaliy bilimlarni kengaytirish, iqtisodiyot yo'nalishlaridagi oliy o'quv yurtlarida bank faoliyati bilan bog'liq fanlarni o'qitish, o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'lanmalarni tayyorlash, shu bilan birga tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun manba sifatida keng foydalanilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari aktivlarini boshqarish bo'yicha normativ huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqishda, tijorat banklarida aktivlarni boshqarishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda foydalanish bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Banklarning transformatsiyalashuvida kreditdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

tijorat banklarida chakana kreditlar bahosini shakllantirishda bozor risklari bo'yicha 1 foizgacha va operatsion risk bo'yicha 0,5 foizgacha ustamani hisobga olish taklifi "Agrobank" ATBning 2023-yilgi kredit siyosatida qo'llanilgan ("Agrobank" Aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 29-martdagi 20-1-15/333-sonli ma'lumot-nomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Agrobank" AKBning 2023-yilda bank kredit portfeli 2022-yilga nisbatan 10 637 mlrd. so'mga yoki 124,2 foizga ortib, 54 483 mlrd. so'mni tashkil qilgan;

tijorat banklarida jismoniy shaxslarning kredit to'loviga layoqatliligini baholashning dastlabki bosqichida kredit risklarini minimallashtirishning uch bosqichli kredit-skoring tizimi yuzasidan kiritilgan taklif "Agrobank" AKBning 2023-yilgi kredit siyosatida qo'llanilgan ("Agrobank" Aksiyadorlik tijorat bankining 2024-yil 29-martdagi 20-1-15/333-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi, bank va mijoz (qarzdor) o'rtasida kreditlash jarayonidagi to'siqlarni jumladan, ortiqcha qog'ozbozlik, navbatlarga turib ortiqcha vaqt sarflamaslik imkonini yaratgan;

bankning chakana mijozlar bazasidan "yaxshi" mijozlar guruhini sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib doimiy shakllantirib borish orqali bu toifadagi mijozlarga ma'qullangan kredit xizmatini joriy etish taklifi "Agrobank" ATBning 2023 yilgi kredit siyosatida qo'llanilgan. ("Agrobank" ATBning 2024-yil 29-martdagi 20-1-15/333-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida, tadbirkorlar va aholini kreditlashda inson omili ishtirok etmaydigan yangi tizim yo'lga qo'yildi. Bu bilan avvalgi 5 pog'onali kreditlash tizimi 2 pog'onaliga tushirishga erishib, masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonini sezilarli darada oshirish imkoni yaratilgan;

banklarning chakana kredit mahsulotlarini taqdim etishda boshlang'ich badalga

nisbatan moslashuvchan shartlardan foydalanib, avtokreditlar bo'yicha boshlang'ich badalni 30 foizdan 10 foizga tushirish orqali kreditlash hajmini oshirish yuzasidan kiritilgan taklif "Agrobank" ATBning 2023-yilgi kredit siyosatida qo'llanilgan. ("Agrobank" ATBning 2024-yil 29-martdagi 20-1-15/333-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasiga ko'ra "Agrobank" ATBning 2023-yildagi foizli daromadlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan oshib 2 202,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya tadqiqoti natijalari 5 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Undan 6 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan mahalliy nashrlarda va 2 tasi xalqaro jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tijorat banklarining kredit berish salohiyatini baholashning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida Kredit salohiyati tushunchasi va uni baholashning tasnifi berilgan. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasida kreditdan foydalanishni baholashning huquqiy asoslari tahlil qilingan hamda Mijozning kreditga layoqatliligini baholash usullarining xorij tajribasi o'rganilgan.

Amaliyotda kreditga layoqatlilik ko'rsatkichi ko'proq bankdan qarz oluvchi korxonaga faoliyatini ifoda qiladi. Kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlarini ikki tomonlama ko'rib chiqish mumkin:

qarz oluvchi nuqtayi nazaridan kreditga layoqatlilik-kredit shartnomasini tuzish imkoniyati, olingan kreditlarni o'z vaqtida qaytara olish qobiliyatini ifodalasa;

bank nuqtayi nazaridan – korxonaga beriladigan kreditning hajmini to'g'ri aniqlay olish mas'uliyatini bildiradi.

Muallifning fikricha, tadqiqotda e'tibor qaratilishi zarur jihatlar quyidagilardan iborat:

1. Aksariyat manbalarda kreditga layoqatlilik moliyaviy ko'rsatkichlar asosida baholangan, bunday moliyaviy koeffitsiyentlar banklar tomonidan berilayotgan kreditlarning haqiqiy ko'rsatkichlarini to'liq tahlil qilish imkonini bermaydi.

2. Kreditga layoqatlilikni baholashda ko'p holatlarda nomoliyaviy ko'rsatkichlarga e'tibor qaratilmagan.

Hozirgi kunda zararsizlantirishning ichki mexanizmlari korxonalar moliyaviy riskining asosiy qismini qoplaydi. Moliyaviy risklarni minimallashtirish uchun ichki mexanizmlardan foydalanish afzalligi, qoida tariqasida, boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarga bog‘liq bo‘lmagan muqobil boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iborat. Moliyaviy risklarni minimallashtirishning ichki va tashqi mexanizmlari tizimi quyidagi asosiy usullardan foydalanishni nazarda tutadi:

1. Xatarlardan qochish. Moliyaviy risklarni zararsizlantirishning bu yo‘nalishi eng radikal hisoblanadi.

2. Xavf konsentratsiyasini cheklash – chegarani belgilash, ya‘ni xarajatlar, sotish, kreditlar bo‘yicha cheklovlar. Limitlash risk darajasini pasaytirishning muhim usuli bo‘lib, banklar tomonidan kreditlar berish, overdraft shartnomasini tuzish va hokazolarda qo‘llaniladi.

3. Xatarlarni taqsimlash. Moliyaviy risklarni minimallashtirishning bunday yo‘nalish mexanizmi ularni individual moliyaviy operatsiyalar uchun sheriklarga (ya‘ni qarz beruvchi va oluvchiga) qisman o‘tkazishga asoslanadi.

4. Sug‘urtalash (ichki sug‘urta). Moliyaviy risklarni minimallashtirishning bunday yo‘nalish mexanizmi korxonalar tomonidan moliyaviy resurslarning bir qismini zaxiraga qo‘yishga asoslanadi, bu esa bunday risklar kompaniyaning harakatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan moliyaviy operatsiyalar uchun salbiy moliyaviy oqibatlarini bartaraf etish imkonini beradi.

5. Xatarlarni sug‘urta qilish. Xatarlarni sug‘urtalash xavfni kamaytirishning eng muhim usuli hisoblanadi. Sug‘urtaning mohiyati shundaki, investor xavfdan qochish uchun o‘z daromadining bir qismidan voz kechishga tayyor, ya‘ni u xavfni nolga tushirish uchun har qanday to‘lovga tayyor turadi.

Tijorat banklari tomonidan mijozlarining kreditga layoqatliligini baholashning me‘yoriy-huquqiy asoslari ko‘p hollarda pog‘onalarga bo‘lish orqali o‘rganiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “bank tizimi aktivlarining umumiy hajmida davlat ulushi bo‘lmagan banklar aktivlari ulushini joriy 15 foizdan 2025-yilga kelib 60 foizgacha oshirish hamda banklar majburiyatlarining umumiy hajmida banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlari ulushini joriy 28 foizdan 2025-yil yakuniga 70 foizgacha oshirish” borasida vazifalar belgilab berilgan.

Ilmiy tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli “2020 – 2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 23-martdagi PQ-3620-sonli “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-sonli “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari va sohadagi normativ-huquqiy boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi. Shu munosabat bilan tijorat banklari resurslari barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan har bir ilmiy tadqiqot muhim va dolzarb hisoblanadi.


AQSh Kongressi tomonidan “Teng kredit olish imkoniyati to‘g‘risida”gi (ECOA) – Equal Credit Opportunitites Act) qonunni qabul qilingan. Qonunga muvofiq, kreditorlar tomonidan kredit qarz oluvchilarning yoshi, oilaviy ahvoli, jinsi, dini va millatiga qarab ajratilmasligi kerak.

Ko'pgina Amerika banklari amaliyotida mijozlarning kreditga layoqatliligini baholashda ikki xil usuldan foydalaniladi:

1. Banklarda birinchi mijoz bank talablari yuzasidan tekshirib chiqiladi va kredit berish yoki bermaslikni hal qilinadi.

2. Kreditga layoqatlilikni baholashda balli tizimdan foydalaniladi. Bunda matematik korrelyatsion tahlil va omillar tahlilidan foydalaniladi.

AQShda mijozning kreditga layoqatliligini baholash va kredit riskini minimallashtirish maqsadida 5 "C" usuldan foydalaniladi. Bu usul mijoz faoliyatini baholashning quyidagi mezonlariga asoslanadi.



### 1-rasm. AQShda mijozning kreditga layoqatliligini baholash va kredit riskini minimallashtirishning 5 "C" usuli<sup>6</sup>

Hozirgi kunda AQShda chakana mijozlarni kreditlashda FICO (Fair Isaac Corporation) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan skoring ballari mashhur bo'lib, uning qiymati 300 balldan 850 ballgacha bo'lgan intervalda baholanadi. Bunda qarz oluvchining moliyaviy holati quyidagi shkaladagi ballar orqali baholanadi:

690 balldan – 760 ball va undan yuqori bo'lsa – a'lo;

650 balldan – 690 ballgacha o'rtacha standart daraja;

640 balldan – 650 ballgacha yaxshi deb baholanishi va kredit ajratilishi mumkin.

Buyuk Britaniyada Kreditga layoqatlilikni baholash bilan birga bank kreditdan foydalanishning iqtisodiy samaradorligini ham tekshiradi. Buning uchun qarz oluvchini kredit olishdan maqsadini tasdiqlovchi hujjatlar ko'rib chiqiladi. Bank qarz oluvchining maqsadini, realligini va haqqoniyligini, ularni (talab, taklif, sifat va miqdor, narxi, raqobatchilarning qarshiligi va boshqa ko'rsatkichlari bo'yicha) shakllanayotgan bozor konyukturasiga mos kelishini baholaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, turli mamlakatlarda mijozlarning kreditga layoqatliligini aniqlashda turli yondashuvlar bo'lsa-da, ularning asosiy maqsadi bank tomonidan beriladigan kreditlardan samarali foydalanish va ularning o'z vaqtida bankka qaytib kelishini ta'minlashdan iborat. Shu bilan birga, yuqoridagi bir qator rivojlangan davlatlarning bank kredit siyosati mexanizmi va uni davlat tomonidan tartibga solishni o'rganish natijasida Yaponiya banklari kredit siyosatini O'zbekistondagi Respublikasi bank tizimiga bosqichma-bosqich tatbiq etib borish maqsadga muvofiq degan xulosaga kelindi.

<sup>6</sup> AQShning FICO (Fair Isaac Corporation) tashkiloti ma'lumotlari.

O‘zbekistonning kredit siyosati mexanizmidagi Yaponiyada qo‘llanilgan keskin choralar mamlakatimizda ham qo‘llanilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuning uchun ham Yaponiya banki tinimsiz mamlakat iqtisodiyotining haqiqiy holatini kuzatib turadi, tahlil qiladi, vaqti-vaqti bilan zarur vositalarni harakatga keltiradi va pul muomalasi sohasida zarur chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

## 1-jadval

### Buyuk Britaniya banklarida mijozning kreditga layoqatliligini aniqlash bo‘yicha savollar varag‘i<sup>7</sup>

Ko‘rsatkichlar	Mazmuni
Qarz oluvchi (borrower)	Oilasi, obro‘-e‘tibori, sofdilligi, bankka tanishligi, bank bilan munosabatlari
Boshqaruv tarkibi malakasi	Ma‘lumoti, mutaxassislik bo‘yicha staji, boshqara olish qobiliyati
To‘lovga qobillik	To‘lov intizomiga rioya qilish, biznes talablariga resurslarning mosligi
<b>Asosiy ko‘rsatkichlar</b>	
Purpose (kredit maqsadi)	Qonuniyligi, bank-kredit siyosatiga to‘g‘ri kelishi
Amount (kredit summasi)	Tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligi, so‘ralgan summa yetarliligi, kam yoki ko‘pligi
Repayment (qaytarish)	Qaytarilish muddati va grafigi mavjudligi, qaytarilish manbayi – kelajak daromadlari, qisqa muddatli kreditlar, qarz oluvchi pul oqimlarini prognozlash
Viability (kreditlanayotgan loyihaning realligi)	Texnik-iqtisodiy asoslar bajarilganligi, kompaniya hisobvaraqlari tahlil qilinganligi, qarz oluvchi balansining baholanishi
Risks (risklar)	Bank va kompaniya uchun risklar manbalarini mujassamlangligi, riskning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish mumkinligi
Security (ta‘minlanganlik)	Ta‘minotning taqdim etilganligi, garovlarni sug‘urta polislarini tekshirish, garov qiymati va qayta baholanganligi
Profitability (foydalilik)	Foiz darajasining bankni tortilgan riskiga mosligi, foiz darajasining xarajatlarni qoplash darajasi

## 2-jadval

### Yaponiyada kredit muassasalarining guruhlanishi<sup>8</sup>

<b>Xususiy kredit muassasalari: oddiy banklar</b>	a) hududiy banklar; b) shahar banklari; v) hududiy banklar uyushmasiga a‘zo banklar; g) chet el banklari.
<b>Maxsus kredit muassasalari</b>	a) uzoq muddatli kredit berish muassasalari; b) kichik va o‘rta biznes uchun kredit muassasalari; v) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklari kredit muassasalari.
<b>Boshqa kredit tashkilotlari</b>	a) qimmatli qog‘ozlar kompaniyalari; b) sug‘urta kompaniyalari; v) qimmatli qog‘ozlarga investitsiyalarni boshqarish kompaniyalari; g) boshqa nobank kredit muassasalari.
<b>Hukumat kredit muassasalari</b>	a) banklar va moliya korporatsiyalari (Yaponiya taraqqiyot banki; Yaponiya eksport-import banki, Xalq moliya kompaniyasi; uy-joy qurilishining kredit siyosati korporatsiyasi); b) chet el iqtisodiy korporatsiyasi jamg‘armasi; v) pochta omonatlari muassasalari; g) kichik va o‘rta biznesga berilgan kreditlarni kafolatlash korporatsiyalari.

<sup>7</sup> Muallif ishlanmasi.

<sup>8</sup> Хидео Судо. Японская финансовая система. - MOF/JCIF Seminar in Uzbekistan.

Ayrim xorijlik iqtisodchilarning fikricha, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Koreya, Daniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Meksika, Chili, Braziliya singari mamlakatlarda mijozlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash davlat dasturlari muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda, yangi ish o'rinlarini oshirish va innovatsiyalarni qo'llash va ular faoliyatining rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni yaratish ustuvor vazifalardan biriga aylangan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida qarzdorning kredit layoqatliligini baholash usullari va uning tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida tijorat banklarida yuridik va jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliligini baholash usullari va uning tartibi hamda O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari resurs bazasining tahlili, tijorat banklarining “Yashil” kredit loyihalari tahlili amalga oshirilgan.

Shu bilan birga kreditga layoqatlilikni baholash mezonlarida quyidagi bartaraf etiladigan kamchiliklar hamda takomillashtirilishi talab etiladigan umumiy jihatlar mavjudligi aniqlangan:

koeffitsiyentlarni hisoblash usulidagi kamchiliklar;

bunday koeffitsiyentlar asosida korxonaning moliyaviy holatini to'liq baholash imkoni mavjud emasligi;

xalqaro tajriba e'tiborga olinmaganligi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etish respublikamiz bank sohasidagi kredit munosabatlarida amalga oshirilayotgan korxonaning kreditga layoqatliligini baholashni davr talablari asosida takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan maqsad kredit oluvchi korxonalarining kreditga layoqatliligini baholashni to'liq, aniq va tezkor o'rganishdir. Bu bilan kreditga layoqatli bo'lgan eng munosib korxonalarni tanlab olish imkoniyati yaratiladi. Natijada esa kredit riski sezilarli kamayishiga erishiladi.

### 3-jadval

#### Tabaqalashtirish tartibning qiyosiy tahlili<sup>9</sup>

Amaldagi tartibda		Takomillashtirilgan tartib		Taklif etilayotgan tartibda	
Sinf	Kredit ajratish sharti	Sinf	Kredit ajratish sharti	Sinf	Kredit ajratish sharti
1-sinf	Kredit ajratiladi	1-sinf	Kredit imtiyozli asosda beriladi	1-sinf	Foizlar imtiyozli va hajmda limit cheksiz
2-sinf	Kredit alohida hollarda ajratilishi mumkin	2-sinf	Kredit umumiy tartibda ajratiladi	2-sinf	Foizlar imtiyozli, hajmda limit mavjud
3-sinf	Kredit ajratilmaydi	3-sinf	Kredit alohida hollarda yuqori foizli stavkalarda ajratish mumkin	3-sinf	Umumiy tartibda kredit ajratiladi
		4-sinf	Kredit riski juda yuqori	4-sinf	Yuqori foizlarda ajratiladi
		5-sinf	Kredit ajratilmaydi	5-sinf	Yuqori foizda, muhumlilikka qarab
				6-sinf	Kredit har qanday holatda ajratilmaydi

“Jismoniy shaxslarga ajratiladigan kreditlarga nisbatan layoqatlilik modeli” ning

<sup>9</sup> Muallif ishlanmasi.

afzal jihatlari shundaki:

1. Bu model korxonaning kreditga layoqatliligiga aniq, to‘liq, keng qamrovli baholash imkoniyatiga ega.

2. Amaldagi baholashdan farqli ravishda kreditga layoqatlilik holati 6 ta sinf asosida amalga oshiriladi. Bu banklar tomonidan korxonalarni kreditga layoqatlilik holati bo‘yicha tanlash imkoniyatini oshiradi.

3. Kreditga layoqatlilikni baholash mezonlarini hisoblash usullari takomillashtirilgan, ya’ni aniqlikni ta’minlash darajasi oshirilgan.

4. Xalqaro tajriba e’tiborga olingan holda yaratilgan.

“Agrobank” ATBning daromadlari, xarajatlari va lozim bo‘lgan dividendlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni jamlagan holda tahlil qilingan. Bundan tashqari 2023-2024-yillar kesimida “Agrobank” ATBning soliq ko‘rsatkichlarining ham tahlili amalga oshirilgan.

Shu bilan birga muallif tomonidan obyekt qilib olgan bankning homiylik ko‘rsatkichlari tahlili amalga oshirilgan va unda 2023-yil davomida bu to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘linmagan. Lekin 2024-yilda esa bu holat 62 trillion 99 milliard so‘m miqdoridagi pul mablag‘lari ajratilgan.

Tijorat banklarining jismoniy shaxslarga taklif etishi kerak bo‘lgan tavsiyaviy kredit foiz stavkasi	
Jismoniy shaxslar	
Qisqa muddatli	Uzoq muddatli
Online mikroqarzarlar : 6-12 oy , 32%-35%	Kredit karta 1-3yil , 30%-35%
Mikroqarzar :6-12 oy ; 25%-30%	Mikroqarzar 1-3 yil , 32%-35%
Kommunal to‘lovlar :3-12oy , 18%-25%	Avtokredit 1-5 yil , 20%-30%
Byudjet tashkilotlari xodimlari uchun mikroqarzar 3-12 oy , 18%-25%	Byudjet tashkilotlari xodimlari uchun mikroqarzar 1-5 yil , 20%-28%
Yashil kreditlar 6-12 oy , 18%	Ipoteka kreditlari 18% (imtiyozli foiz stavkasi bundan mustasno) Yashil kreditlar 1-5yil , 18%-20%
Ijtimoiy ko‘mak (dori darmon , oziq -ovqat , nogironlik texnikalari , davolanish, ta‘lim )3-12 oy , qayta moliyalashtirish stavkasidan -2%	Ijtimoiy ko‘mak (dori darmon , oziq -ovqat , nogironlik texnikalari , davolanish, ta‘lim )1-10yil , qayta moliyalashtirish stavkasidan -5%

*Izoh: tavsiya etilayotgan kredit foizlari qayta moliyalashtirish stavkasi, risklar va ijtimoiy muhimlik darajalari bilan izohlanadi.*

## **2-rasm. Tijorat banklarida jismoniy shaxslarga tavsiya etiladigan kredit foiz stavkalarining tabaqalanishi<sup>10</sup>**

Tahlil qilinayotgan davrda (2023-yil) bankning daromadlari 16 203 milliard so‘mni tashkil qilib, 14 974 milliard so‘m xarajatni shakllantirgan. Foyda ko‘rsatkichi esa 1 229 milliard so‘mni tashkil etgan. Foyda ko‘rsatkichi umumiy O‘zbekistondagi

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi.

banklar ko‘rgan foydaning, ya’ni 15 805 milliard so‘m miqdorida bo‘lib, “Agrobank” ATB tomonidan ko‘rilgan foyda shuning 7,7 %ini tashkil etadi. 2024-yil 9 oylik ko‘rsatkichlari avvalgi yilning mos davriga taqqoslanganda daromad ko‘rish darajasi 14 % oshgan.

Tijorat banki tomonidan yaratilgan rezerv 2023-yilning 9 oyligida 1 987 milliard so‘m bo‘lsa, 2024-yilning mos davrida bu korsatkich 1 157 milliard so‘mni tashkil etgan. 2024-yilning 9 oyligida resezrvlarni shakllantirish 2023-yildagi umumiy 2 262 milliard so‘mga nisbatan 58 %ni tashkil etgan. Demak, tijorat bankida bu borada kechikishlar mavjudligi kuzatilgan.

Muallif tavsiya etayotgan kredit foiz stavkasi mexanizmida tijorat banklari tomonidan berilishi mumkin bo‘lgan kreditlarning ijtimoiy zarurati va muhimlikka asosan tavsiya etilgan. Albatta, iqtisodiyotda inflatsiya darajasi pasayishi bilan, tavsiya etilgan foiz stavkalari ham kamaygan holatda tavsiya etiladi. Ijtimoiy ko‘mak kreditlarining tijorat banklari tomonidan taklif etilishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi muhim bo‘lgan jarayon hisoblanadi. Sababi kutilmagan kasalliklar, davlat dasturlariga kiritilmagan ta’lim kreditlari (tijorat banklarining tashabbusi bilan), kechiktirib bo‘lmas kommunal xarajatlar uchun yuqori bo‘lmagan foizdagi kreditlar taklifi jamiyat farovonligini ta’minlanishda yutuq bo‘lardi. Tabiiyki, bu jarayonda kredit monitoringida kreditning maqsadlilik tamoyilidan chetlashmasligini ta’minlash kerak.


#### 4-jadval

#### Jahon standartlariga ko‘ra tijorat banklarining likvidlik darajalariga qisqacha tavsif<sup>11</sup>

Likvidlik darajasi	Qisqacha tavsif	Miqdor ko‘rsatkichi
<b>Tijorat banklarining lahzali likvidlik darajasi</b>	Bir operatsion kun mobaynida tijorat bankining likvidlik darajasidagi yo‘qotish riski tartibga solinadi	15 %ga teng yoki undan yuqori
<b>Tijorat banklarining joriy likvidlik darajasi</b>	30 kalendar kuni davomida tijorat bankining likvidlik darajasidagi yo‘qotish riski tartibga solinadi	50 %ga teng yoki undan yuqori
<b>Tijorat banklarining uzoq muddatli likvidlik darajasi</b>	Mablag‘larni uzoq muddatli aktivlarga joylashtirish natijasida tijorat bankining likvidlik darajasidagi yo‘qotish riski tartibga solinadi	120 %ga teng yoki undan past

2024-yil iyun holatiga O‘zbekistondagi tijorat banklari tomonidan taqdim etilgan kreditlardan banklar kesimi bo‘yicha tahlilda muammoli kreditlarning eng yuqori ko‘rsatkichi Xalq bankida 16,4 % bo‘lgan. Bu jihatni Xalq bankining davlat ijtimoiy dasturlaridagi ijtimoiy dasturlari bo‘yicha kelib chiqqan deyish mumkin. Xalq banki mijozlari tomonidan kredit qaytarilish jarayoni keskin oshib ketganligi sababli tijoriy kreditlar berish vaqtinchalik to‘xtatilgan. Undan keyingi o‘rinlarda “Mikrokredit bank” 5,6 ko‘rsatkich bilan oshbu salbiy pog‘onada ikkinchi o‘rinda.

<sup>11</sup> Ефимова Е.Г. Деньги, кредит, банковское дело: Практикум. – М.: Изд-во МГИУ., 2009.



**3-rasm. Davlat banklari orasida muammoli bank kreditlari (NPL) ko'rsatkichi bo'yicha ma'lumot<sup>12</sup>**

Bu ikki bank mijozlarining tahlili olib borilsa, shu narsa ma'lumki, bunday kreditlarning aksariyati aynan chakana kreditlar sabab yuzaga kelgan va ijtimoiy muammoli oilalarga to'g'ri keladi. O'rganilgan 10 ta bank orasida nisbatan eng yaxshi ko'rsatkich "Ipoteka banki"ga tegishli bo'lib, 2,8 % ko'rsatkich aks etgan.

Mijozlarning tarmoqlararo xususiyatiga qarab kreditlarning shakl va usullarini tatbiq etishda, shuningdek, qarzdorning kreditga layoqatligini aniqlashda bank xodimining malaka va tajribalarini oshirish

Foiz daromadlarining keskin pasayib borishi

Qarzdor ustidan yaterlicha monitoring o'rnatilmaganligi

Bank kredit qo'mitalari qarorlari sifatini oshirish

Kredit munosabatlarida mijoz manfaatlariga rahna soluvchi shartnoma shartlarining amaliyotiga tatbiq etilayotganligi

Kreditlashning ta'minlanganlik tamoyilini amalga oshirishda xodimlarning malaka va tajribalarini oshirish

Bank boshqaruvi sifatining jahon talablari darajasida emasligi

Kredit munosabatlarida majburiyat ijrosini ta'minlashga doir milliy qonunchilik hujjatlari qoidalarini takomillashtirish zarurati

